AKBAR ABDULLAYEV
OTABEK RAXIMOV
SOLI SA'DIYEV.

# LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O`ZBEK ALIFBOSINING STANDART SHRIFT NAMUNASI



NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

*"Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi "*

kafedrasi

**Chizmachilik fanidan**

# LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O`ZBEK ALIFBOSINING STANDART SHRIFT

# NAMUNASI

Navoiy 2014 y

Ushbu uslubiy ko‘rsatma O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy - ma’naviy holatlarni inobatga olinib, qabul qilingan lotin yozuvi asosida o‘zbek alifbosini tez va soz o‘rganishda amaliy va uslubiy maslahatlar beradi. «Chizma shriftlari» nomli topshiriq, «Muhandislik grafikasi» kursi bo‘yicha bajariladigan birinchi uy grafik ishi bo‘lib, ushbu uslubiy ko‘rsatma, UzRST2.304 - 96 va UzRST2. 321 - 96 ga muvofiq; kirill va lotin yozuvi asosida o‘zbek alifbosining shrift namunasi hamda, ularning yozma harflari yonma - yon keltirilgan, Bu esa alifboni qisqa vaqt ichida mukammal o‘zlashtirishga yordam beradi.

Uslubiy ko‘rsatma Navoiy davlat pedagogika institutida ta’lim olayotgan, barcha yo‘nalishlardagi talabalar uchun hamda, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga qiziquvchilar va mustaqil o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur uslubiy ko‘rsatma Navoiy Davlat pedagogika instituti 05.05 2014 yil №9-sonli Ilmiy kengashida muhokama qilindi va nashrga tavsiya etildi..

**Tuzuvchi:** **A.H.Abdullayev,O.D.Raximov, S.T.Sa`diyev.**
Navoiy Davlat pedagogika instituti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi o‘qituvchilari

**Taqrizchilar:** **Shodiyev Furqat**
Navoiy Davlat Konchilik Instituti dotsenti
**S.A. Shovdirov**
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o`qituvchisi

# KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonunini amalga oshirish, ta’lim yo‘nalishlaridagi bir qancha bosqichlarda ro`yobga chiqadi. Amaldagi alifbo bo‘yicha, ya’ni Kirill yozuvidagi harflar shriftlari bo‘yicha, chizmachilik darslari olib borilmoqda. Joriy etilayotgan alifbo bo‘yicha hozirgi chizmachilik darsliklarida, ko‘rsatmamizda tavsiya etilayotgan fikrlarimiz aksini topmagan.

Umumta’lim maktablaridan tashqari, oliytexnika va Pedagogika institutlarining, tasviriy san`at va muhandislik grafikasi yo`nalishlarida ham, «Chizma shriftlar» nomli topshiriq muhandislik grafikasi kursi bo‘yicha bajariladigan birinchi uy topshirig‘i bo‘lib, ushbu uslubiy ko‘rsatmada O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy - ma’naviy imkoniyatlari inobatga olinib qabul qilingan lotin yozuvidagi shrift namunalari, GOST2. 304 - 96 ga muvofiq; yonma - yon keltirilgan bu esa kirill va lotin yozuvlari orasidagi farqlarni tezroq o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma umumta’lim maktablarining o‘qituvchilari, oliy texnika va Pedagogika institutlarining, tasviriy san`at va muhandislik grafikasi yo`nalishlari talabalari, shuningdek o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurti o‘qituvchilariga amaliy foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Texnik hujjatlashtirish, diplom va kurs loyihalarini tayyorlashdagi topshiriqlarning ko‘pchiligi hozir lotin grafikasida berila boshladi, shuningdek, ishlab chiqarishda ham, ya’ni me’morchilik loyiha topshiriqlarini bajarishda ham, ushbu shrift namunalaridan foydalanish imkoniyati bo‘ladi.

M u a l l i f l a r .

B I R I N C H I  Q I S M.

**O‘ZBEK LOTIN ALIFBOSI BILAN, O‘ZBEK KIRILL ALIFBOSINING QIYOSI.**

B O S H  H A R F L A R

1. Quyidagi 6 ta bosma harfning so‘z boshidagi shakli har ikkala alifboda ham bir xil shakldа yoziladi va bir tovushni ifodalashga xizmat qiladi:

А - **A** : Акварел— ***Akvarel;***

Т - **T**: Тасвирий санъат ва муҳандислик кафедраси— ***Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi ;***

М - **M :** Машинасозлик дарслари**—** ***Mashinasozlik darslari;***

О - **O** : Октантлар— ***Oктапдлар;***

Т **- T** : Топография— ***Topография;***

Х - **X**: Халқ амалий безаги **—** ***Халқ амалий безаги;***

2. Quyidagi 5 ta harflar ikkala alifboda ham mavjud bo‘lib, ular har ikki alifboda boshqa tovushlarni ifodalashga xizmat qiladi:

В - **V**: Вариантлар— ***Вариантлар;***

Ҳ - **H** : Ҳаво ҳайдагич**—** ***Havo haydagich;***

П – **P** : Пленер— ***Пленер;***

Й - **У** : Йўлсимон нақш — ***Йўлсимон нақш;***

Э - **E** : Электрон кўз — ***Электрон кўз;***

3. O‘zbek Kirill alifbosidagi 13 ta bosma bosh harf, o‘zbek lotin alifbosida boshqacha shaklda yoziladi:

Д- **D**: Димметрия— ***Димметрия;***

Ф - **F** : Фасад — ***Фасад;***

Г - **G** : Геометрия— ***Геометрия;***

И - **I** : Иконалар— ***Иконалар;***

Ж - **J** : Жаконда — ***Жаконда;***

Л – **L**;  Лабаратория — ***Laboratorія;***

Н - **N** : Наброска— ***Наброска;***

Қ- **Q** : Қаттиқ жисм— ***Қаттиқ жисм;***

Р –**R** ; Ракурслар— ***Ракурслар;***

С– **S** ; Совуқ ранглар**—** ***Совуқ ранглар;***

У - **U** : Учбурчаклар— ***Учбурчаклар;***

В - **V** : Вариантлар— ***Вариантлар*;**

З- **Z** : Зарқоғоз— ***Zarqog'oz;***

4. Quyidagi kirill alifbosidagi 3 ta harf o'rniga, o'zbek lotin alifbosida harflar birikmasi yoziladi:

Ч- **CH** : Ч ойнак пийола— ***Ч ойнак пийола*;**

Ш - **SH** : Шимилиш — ***Shimilish;***

НГ – **NG** : Санътнинг ўзига хослиги— ***Санътнинг ўзига хослиги;***

* bu harfiy birikma o'zbek tilida, faqat so'z o'rtasi va oxiridagina uchraydi. Lekin matbuotda, peshlavhalarda, hamda shiorlarda bosh harflar bilan yoziladi:

Минг булоқ— ***Mingbuloq***.

Xuddi shuningdek, bu holatda SH va CH harf birikmalari SH va CH tarzida yoziladi.

5. O'zbek kirill alifbosidagi Ў va Ғ harflari o'zbek lotin alifbosida belgi bilan harf yoziladi:

Ў - **O'** : O'tgan kunlar — ***O'tga chidamli ashyo;***

Ғ - **G'** : G'aroyib manzara— ***G'aroyib manzara;***

## YOZMA HARFLAR

1. Quyidagi 5 ta harflar, ikki alifboda ham bir shaklda yoziladi va bir tovushni ifoda etadi: ***a; k; x;*** **o** va ***e***

**Izoh;** ***e*** harfi o'zbek kirill alifbosida (**й+э** va **э**) ikki vazifali bo'lsa, o'zbek lotin alifbosida bir vazifani, ya'ni barcha o'rinlarda «э» tovushini ko'rsatadi:

*электрон ko`zлар* — ***электрон ko`zлар***.

2. Quyidagi 4 ta harf o‘zbek lotin alifbosida va o‘zbek kirill alifbosida mavjud bo‘lib, ular boshqa- boshqa tovushlarni ko‘rsatishga xizmat qiladi:

у- u ; узунлик— *uzunlik;*

м - *m* ; масофа — *masofa;*

п- p ; профил кўриниш— *профил кўриниш;*

н - n : нафис санъат— *нафис санъат.*

3. Quyidagi 15 harf o‘zbek lotin alifbosida, yangi harflardir:

б - b : baland bino— ***baland bino*;**

ф - **f** : fazoviy ko`rinishlar— ***fazoviy ko`rinishlar;***

г - **g** : giometrik figuralar— ***giometrik figuralar*;**

ҳ - **h** : havo rang— ***havo rang;***

и - **i** : ishlab chiqarish — ***ishlab chiqarish;***

ж - **j**: jismlarni qirqish — ***jismlarni qirqish;***

л - **l** : lekala — ***lekala;***

қ - **q** : qiriqimlar— ***qiriqimlar;***

р - **r**: rakurs — ***rakurs;***

с- **c** : saralagich — ***saralagich;***

т - **t** tayyor mahsulot— ***tayyor mahsulot;***

в - **v** : vertikal ko`rinish— ***vakuum eritish;***

з - **z** : zar qog‘oz— ***zar qog‘oz;***

й - **y** : yon ko`rinish — ***yon ko`rinish;***

д - **d** : dasta — ***dasta;***

4. O‘zbek lotin alifbosida apostrof (tutuq; belgisi) tiklanli. Mazkur belgi faqat arabcha va forscha so‘zlar tarkibida kelgandagina yoziladi: ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi — ***ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi***.

5. Quyidagi 2 ta Kirill alifbosidagi yozma harflar o‘rniga o‘zbek lotin alifbosidagi harflar birikmasi yoziladi:

ч - ***ch*** : chang - ***chang;***

*ш* - ***ш***: sharq – ***sharq****;*

6. Quyidagi 2 ta Kirill alifbosidagi yozma harf o‘rniga o‘zbek lotin alifbosida belgi bilan harf yoziladi:

ў’ - **o‘** : so‘m - **so‘m;**

ғ - **g‘** : g‘isht – **g‘isht;**.

6. O‘zbek kirill alifbosidagi ё , ю, я harflarining o‘zbek lotin alifbosida aks ettirilishi:

ю : «O‘zbek tilining qisqacha imlo lug‘ati» (Toshkent, UzFA nashriyoti, 1962)ga kiritilgan 55 ta so‘zlarning to‘rttasida ***yu*** tarzida yoqiladi:

***Byuro; Byurokrat; Byust; Menyu.***

Qolgan 51 so‘zda esa ***u*** harfi yozish yetarli: ***alyumin, lyuks*** va boshqalar.

я: shu lug‘atga kiritilgan 47 so‘zdan 9 tasi ya tarzida yoziladi: ***Buryat, dvoryan, naryad, plyaj, slavyan, tyagach, zaryad, zaryadka***.

Qolgan 38 so‘zda a harfini yozish yetarli: ***modelyar, sentabr, regulyator*** va boshqalar.

ё: mazkur lug‘atga kiritilgan 41 so‘zdan 24 tasida ***yo*** tarzida yozladi:

***aktiyor, dublyor, transportyor, boksyor, montyor, rartnyor, rejessyor, reportyor, sapyor, suflyor, vaxtyor, shaxtyor, minamyot, rlimyot samolyot, vertolyot, plyonka, putyovka, shpaklyovka, razvyotka, slyot, , amyoba.***

Qolgan 17 so‘zda **o** harfini yozish yetarli: ***drijyor, likyor, stajyor, uchyot, zachyot*** va boshqalar.

7. O‘zbek kirill alifbosida unli tovushning yumshoqligi belgisi bilan ko‘rsatilar edi: albom, volt, aprel, neft kabi. O‘zbek lotin alifbosida bunday so‘zlarda yumshatish belgisini o‘uyish o‘z - o‘zidan yuqoladi: *albom, volt, aprel, neft.* Bu belgi yumshatish belgisi bo‘lishidan tashqari ayirish belgisi vazifasini ham bajaradi:

интервю — ***intervyu;***

фортепиано — ***fortepyano;***

премера — ***premera*** kabilar.

Bunday holatlarda:

a) ь belgisi ю , я, е harflaridan oldin kelsa, u holda ь belgisi tashlanib, ***yu* , *ya* , *ye*** , harflario‘rnigaиы, ***u a, uye*** harflari yoziladi: ***intervyu, fortepiano, primera*** kabilar.

b) *ь* belgisi ***o*** va ***u*** harflaridan oldin kelsa, u holda belgisi tashlanib, uning o‘rniga ***u*** harfi yoziladi: ***pochtalyon, pavilyon, medalyon*** kabilar.

8. O‘zbek kirill alifbosidagi ъ (ayirish) belgisi bilan yozilgan so‘zlarda bu belgi tashlanib, undan keyin kelgan е , ю harflari o‘rniga o’zbek lotin alifbosida ye , yu harflari yoziladi:

разеьзд — ***raz’ezd;***

абитрюнт — ***абитрюнт.***

9. Rus tilidan uzlashgan ayrim so‘zlardagi *sh* harfi o‘rniga o‘zbek lotin alifbosidagi bir tovushni ko‘rsatuvchi *sh* harf birikmasi yoziladi: ***borsh, opshina.***

9. Rus tili va u orqali boshha tillardan o‘zlashgan so‘zlardagi *ц* harfi o‘rniga:

a) so‘z oxirida, so‘zboshida, shuningdek prefiksdan va undoshdan keyin **s** harfi yoziladi: ***kvars;shrris, selofan, konstruksiya, episentr, aksioner, stansiya*** kabilar.

b) boshka hollarda, xususan. ikki unli o‘rtasida kelganda *ts* harflari yoziladi: ***biomitsin, farmatseft, konstitutsiya*** kabilar.

## II- QISM. O‘ZBEK LOTIN ALIFBOSI VA O‘ZBEK KIRILL ALIFBOSINING SHRIFT NAMUNASI.

Barcha sanoat va qurilish tarmoqlarining konstruktorlik hujjatlaridagi yozuvlar, standartlashtirilgan chizma shrifti bilan yoziladi.

GOST2.304 -96 da shriftlarning quyidagi o‘lchamlari belgilangan: (1.8; 2.5); 3.5; 5; 7; 10; 14; 20; (28; 40).

Ushbu shriftlarning o‘lchami, bosh harflarning millimetr hisobidagi balandligi bilan aniqlanadi. Masalan, 14 o‘lchamli shrift- da bosh harflarning va raqamlarning balandligi 14 mm bo‘ladi. Shu o‘lchamdagi yozma harflarning balandligi, bosh harf balandligining 5/7 qismiga, ya’ni (5/7) ga teng bo‘ladi. Bu o‘lcham esa, keyingi standartdagi 10 o‘lchamli shrift balandligiga taxminan teng bo‘ladi.

Standartda shriftlar A va B turlarga bo‘linib, ulardagi harf va raqamlar qatorlar asosi chizgiga nisbatan qiyalatmay (1-shakl) va 75° burchak ostida qiyalatib (2-shakl) yo`lladi.

Shriftning A turida harf va raqam chiqlarining yo‘g‘onligi *d* ularning balandligi h ning (1/14) qismiga. B turida esa (1/10) qismiga teng qilib olinadi. Bu yerda, bitta chizmaga tegishli bo‘lgan so‘z va jumlalarda, barcha yozuvlarning chilq yo‘g‘onligi bir xil bo‘lishi lolm.

1-jadvalda o‘lchami 2.5 dan 20 gacha bo‘lgan shriftlarning A va B turlaridagi harf va raqamlar balandligi h bilan qolgan o‘lchamlari orasidagi nisbat keltirilgan.

Harf va raqamlarning eni g ko‘pi bilan shrift o‘lchami h ga nisbatan d = (6 /10) h yoki shrift chizig‘i yo‘g‘onligi d ga nisbatan d=6 d ga teng qiymatlarda olinadi.

## O‘ZBEK LOTIN ALIFBOSI BILAN O‘ZBEK KIRILL ALIFBOSINING QIYOFASI.

| o‘zbek lotin alifbosida harflar shrifti | o‘zbek kiril alifbosida harflar shrifti | o‘zbek lotin alifbosida harflar shrifti | o‘zbek kiril alifbosida harflar shrifti | o‘zbek lotin alifbosida harflar shrifti | o‘zbek kiril alifbosida harflar shrifti |
|---|---|---|---|---|---|




1- shakl

**LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN, O‘ZBEK ALIFBOSINING SHRIFT NAMUNASI**




2- shakl

| Shriftning parametrlari | Belgisi | O‘lcham -lar | 2.5 | 3.5 | 5 | 7 | 10 | 14 | 20 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **SHriftlarning A turi d =(1\14) n** | | | | | | | | | |
| Bosh harflar va raqamlarning balandligi | n | 14 d | 2.5 | 3.5 | 5.0 | 7.0 | 1.0 | 14.0 | 20.0 |
| Kichik harflarning balandligi | s | 10 d | 1.8 | 2.5 | 3.5 | 5.0 | 7.0 | 10.0 | 14.0 |
| Harflar, raqamlar va belgilar orasidagi masofa | a | 2 d | 0.35 | 0.5 | 0.7 | 1.0 | 1.4 | 2.0 | 2.8 |
| Qatorlar qadqmi kamida | v | 22 d | 4.0 | 5.5 | 8.0 | 11.0 | 1.6 | 22.0 | 31.0 |
| So‘zlar va sondar orasidagi masofa, kamida | e | 6 d | 1.1 | 1.5 | 2.1 | 3.0 | 4.2 | 6.0 | 8.4 |
| Harf va raqam chiziqlarinig yo‘g‘onligi | d | d | 0.18 | 0.25 | 0.35 | 0.5 | 0.7 | 1.0 | 1.4 |
| **SHriftlarning B turi d =(1\10) n** | | | | | | | | | |
| Bosh harf va raqamlarning balandlgi | n | 10 d | 2.5 | 3.5 | 5.0 | 7.0 | 10.0 | 14.0 | 20.0 |
| Kichik harflarning balanligi | s | 7 d | 1.8 | 2.5 | 3.5 | 5.0 | 7.0 | 10.0 | 14.0 |
| Harflar raqamlar va belgilar orasidagi masofa | a | 12 d | 0.5 | 0.7 | 1.0 | 1.4 | 2.0 | 2.8 | 4.0 |
| Qatorlar qadami kamida | v | 17 d | 4.3 | 6.0 | 8.5 | 12.0 | 17.0 | 24.0 | 34.0 |
| So‘zlar va sonlar orsidagi mmasofa kamida. | e | 6 d | 1.5 | 2.1 | 3.0 | 4.2 | 6.0 | 8.4 | 12.0 |
| Harf va raqam chiziqlarining yo‘g‘onligi. | d | d | 0.25 | 0.35 | 0.5 | 0.7 | 1.0 | 1.4 | 2.0 |

## Chizma shriftlarining bajarilishi tartibi.

### Bosh harflar

Bosh harflardan ***A, V, X, Y.*** larning eni – 8d ga, ***M***- harfining eni – 9d ga, ***J*** va ***L***. Harflarining eni -5d, ***E*** va ***F*** harflarning eni – 6d ga va qolgan harflarning eni – 7d ga teng bo‘ladi.

G‘, O‘ harflarning ustki belgilari qatorlar va harflar oralaridagi masofalar xisobiga yoziladi.

Ayrim harflar ketma - ket kelganda (masalan, L va T; T va A; L va V; V va A va h.k.) ular orasidagi masofa kattalashib so‘zdagi harflar ajralib qolgandek ko‘rinadi. Shuning uchun bu oraliqlarda masofa tashlanmasdan yoziladi.

(3 shakl)




3-shakl

### Yozma harflar

Yozma harflardan ***l, j*** -3 ***d, f , t*** – 4 d, r – 5 d, ***m - 9*** d va qolgan harflarning eni - 6 d ga teng bo‘ladi.

Harf va raqamlarning konstruksiyalarini va ularning yozilish usulini o‘rganish uchun kattaroq o‘lchamdagi, (masalan, 10 yoki 14 mm) shriftlarni yozishdan boshlab tavsiya etiladi. Bu yerda, 1 - jadval yordamida shrift balandligi tanlanib, harf va raqamlarning yug‘onligi d ga asoslangan holda to‘r chiziladi va harflarning sxematik shakli to‘r ichida hosil qilinadi. Harflarni va so‘zlarni yozish vaqtida, ba’zi harflar orasidagi masofaning qisqarishi haqidagi, qoidaga rioya qilish lozim.

(3-shakl).

Ushbu uy grafik ishining bajarilishi namunasi 2-shaklda keltirilgan bo‘lib, harflar va raqamlarning balandligi, yo‘g‘onligi, ular orasidagi va qatorlar orasidagi masofa hamda, so‘zlar orasidagi masofalarning qiymatlariga rioya qilinishi, GOST2.304 - 96 ga muvofiq harf va raqamlar, 14 - shriftga bajarilgan topshiriqning namunasi keltirilgan.

**“Hadis”dan**

“Yoshlikdan qabrgacha ilm o‘rgan”.

“Ilm o‘rganish har bir mo‘`min uchun farzdir”.

“Bilimi yetmagan narsaga fatvo bergan, unga amal qilganlarning gunohlarini ham oladi”.

“Kimki haqiqatni bilib turib, noto‘g‘ri maslahat bersa, demak unga xiyonat qilibdi”.

“Inson moli va nasabi bilan emas, ilmi va odobi bilan sharaflanadi”.

“Kimki oqil-u idrok nasib etilgan bo‘lsa, demak u omadlidur”.

“Ilmga nisbatan go‘yo cho‘pon kabi posbon bo‘linglar, lekin ilmni rivoyat qiluvchi bo‘lmanglar”.

“Mo‘`minlarning bir- birlaridan oltita haqlari bor; salom berish, chaqirsa borish, aksirsa javob aytiish, kasal bo‘lsa borib ko‘rish, vavot qilganda janozaga qatnashish”.

“Inson xatoni ko‘proq, o‘z tili bilan sodir qiladi’.

## Adabiyotlar

1. Uz.PST 2.321 -96

2. Uz. PST 2. 304 - 96

3. Abdullayev Yu. Sovg`a . Yangi alifbo va imlodan qo‘llanma. Toshkent. 1996. 78 b.

4. SHomuratov A.U., SHomuradov J “Chizma shriftlari”. (uslubiy ko‘rsatma. Toshksnt. 1990. 20 b.)

5. Russkevich N.L. va b.. “Spravochnik po injenerno - stroitelnomu chercheniyu”. Kiyev. Budevelnik. 1987. 264 s.

6 www.ziyonet.uz

7,www.lex.uz

8. www.oak.uz

9.www.ziyouz.com

10www.edu.uz.